

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA II
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 - Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi: 60111000.- Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

Chirchiq -2023

Fan/modul kodi IIGM404	O'quv yili 2026-2027	Semestr 7	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Ma'buryiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya II	60	60	120	

2. **I. Fanning mazmuni**
Fanni o'qitishdan maqsad – talablarni respublikamiz va unga qo'shni davlatlarning o'ziga xos geografik o'rni, tabiiy boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, ular xalq xo'jaligining asosiy xususiyatlari, ishlab chiqarish tarmoqlarining tarkibi va hududiy joylashi, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlari va ular o'rtasidagi geografik va ekologik tafovutlar bilan tanishtiradi.
Fanning vazifasi - talabalarga respublikamiz va unga qo'shni davlatlarning haqida har taraflama chuqur bilim berish bilan birga Vatanni sevish va ardoqlash, milliy qadriyatlarini e'zozlash va ularga sidqildan xizmat qilish ruhini singdirishdir.

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining nazariy asoslari.

Markaziy Osiyo hududining tabiiy va iqtisodiy geografik hamda tarixiy va ijtimoiy rivojlanishdagi umumiylik va yaxlitlik hamda o'xshashliklari. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy – ijtimoiy birligi ya'ni mintaqada yashovchi turkiy va forsiy xalqlar an'anaviy do'stona aloqalarni mintaqada «Buyuk Ipak Yo'li»ning qayta tiklanishi. Mustaqillik yillarida barpo etilgan telekommunikatsiya shaxobchalarining rivojlanishi. Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlikda rivojlantirish maqsadida yagona iqtisodiy makon (zona) ni tashkil etish. Samarali iqtisodiy integratsiyani yo'lga qo'yib, import – eksport, investitsiya masalalarida imtiyozlarni yo'lga qo'yish. Markaziy Osiyo mintaqasining Osiyo qit'asining ichki qismida, joylashganligi, yirik mamlakatlar bilan chegaradoshligining iqtisodiy munosabatlar o'rnatishga qulayligi. Markaziy Osiyo mamlakatlarning katta qismida rangli va qimmatbaho mineral resurslarning ko'pligi. Mintaqaning asosiy qismining mo'tadil iqlim mintaqasida joylashganligi, uning umumiy aholi joylanishi va xo'jalik faoliyati uchun qulayligi. Tabiiy sharoiti va resurslarning xo'jalikdagi ahamiyati. Mintaqaning katta qismida quyosh radiatsiyasining yuqoriligi, yog'in miqdorining kamligi, vegetatsiya davrining uzoqligi va uning texnik ekinlar –

paxta yetishtirish uchun qulayligi. Suv resurslaridan samarali foydalanish natijasida global – ekologik muammolarning ishlab chiqilishi. Tabiat va ijtimoiy yodgorliklari va ularni muhofaza qilish.

2-mavzu. Markaziy Osiyo aholisi va mehnat resurslari.

Markaziy Osiyo aholisining umumiy soni. Uning tadrijiy o'sishi (dinamikasi), aholi miqdoriy o'sishning asosiy omillari. Unda aholining tabiiy va mexanik (migratsiya) xarakterlarining o'rni. Aholi tabiiy o'sish ko'rsatkichlari, ularning mintaqaviy xarakterlari o'rtasidagi farqlari. Aholining tarkibi (jinsiy, yosh, milliy kabilar) ko'rsatkichlarining mintaqaviy davlatlararo tafovutlari. Aholining hududiy joylashishi. Mintaqaviy davlatlarida aholi hududiy joylashish ko'rsatkichlari. Shahar va qishloq aholisi. Urbanizatsiya jarayoni. Ular ko'rsatkichining Markaziy Osiyo davlatlarida aks etishi. Markaziy Osiyo davlatlari mehnat resurslarining miqdori va sifat ko'rsatkichlari. Mehnat resurslarining hududiy joylashishi, ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

3-mavzu. Markaziy Osiyo iqtisodiyoti

Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining umumiy xususiyatlari. Markaziy Osiyo davlatlarining asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha MDH va jahon xanjamiyatida tutgan o'rni. Eng muxim mahsulot turlari bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasi ko'rsatkichlari. Mintaqaviy iqtisodiyotining bozor munosabatlarga o'tish davridagi muammolari va vazifalari. Mintaqaviy davlatlari iqtisodiyotida sanoatning tutgan o'rni. Markaziy Osiyo davlatlari sanoatining umumiy xususiyatlari, tarkibi, ularning davlatlararo tafovutlari. Undiruvchi (tog' - kon) sanoati bilan bog'liq yo'lqilg'i – energetika, metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari tarmoqlari. Iste'mol uchun tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mashinasozlik, yengil va oziq - ovqat sanoati tarmoqlari. Ularning Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotida tutgan o'rni, geografiyasi. Erkin iqtisodiyotga o'tish davrida respublikalar sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotiningda qishloq xo'jaligini tutgan o'rni. Qishloq xo'jaligi rivojlanishining tabiiy va iqtisodiy geografik omillari bilan bog'liqligi. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining tutgan o'rni, rivojlanish bosqichlari, ahamiyati. Uning tarkibiy xususiyatlari, ulardagi respublikalararo tafovutlar. Asosiy dehqonchilik tarmoqlari. Ularning rivojlanishida irrigatsiya – melioratsiya roli. Tog', tog' oldi, vodiya va mintaqalardagi muhim dehqonchilik tarmoqlarining joylashish xususiyatlari. Asosiy chorvachilik tarmoqlari. Geografik mintaqalarda ularning rivojlanishi xususiyatlari. Qishloq xo'jaligi va atrof muhit.

Transportning tarixiy davrlar davomida davlatlar iqtisodiyotida tutgan o'rni uning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri ekanligi. Uning asosiy rivojlanish bosqichlari: XIX asr oxirigacha davom etgan ot-ulov transportlaridan tortib to hozirgi texnikaga asoslangan zamonaviy transport vositalari

rivojlantirilgan davrlar. Ularning Markaziy Osiyo respublikalari milliy mustaqilligi davrida rivojlanishiga alohida e'tibor berilayotgani. Transport tarmoqlarining tarkibiy xususiyatlari quruqlikda harakatlanuvchi temir yo'l va avtomobil transportlarining mintaq respublikalari yuk oborotidagi alohida ahamiyati. Suv (dengiz va daryo) transport tarmoqlarining sust rivojlanganligi. Quvur va havo transportlari rolini tobora ortib borayotganligi. Mustaqillik sharoitida jahon bozorlari bilan bog'lovchi yangi transport yo'llarini barpo qilinishi.

4-mavzu. Markaziy Osiyo davlatlari.

Respublikaning tashkil topishi, chegaralari, geografik o'ri xususiyatlari. Tabiiy sharoiti. Yer usti tuzilishi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq va o'simlik dunyosining o'ziga xos tamoni. Tabiiy boyliklari, mineral tabiiy boyliklarga boy ekanligi va o'rmon, suv resurslarining tanqisligi. Aholisi va mehnat resurslari ularning tadrijiy, tarkibiy, hududiy joylashish xususiyatlari. Iqtisodiyoti, uning xom-ashyo va yarim xom-ashyo mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirilganligi. Sanoati va uning tarkibiy xususiyatlari. Tog' kon, yoqilg'i energetika, metallurgiya mavqeining respublika iqtisodiyotidagi ahamiyati. Mashinasozlik, kimyo, xalq iste'mol mollari (yengil, oziq-ovqat) sanoatlarining nisbatan yetarli rivojlanmaganligi. Qishloq xo'jaligi, uning asosiy tarmoqlari. Chorvachiligi salmog'ining ustunligi, ularning geografyasi. Dehqonchilik tarmoqlari, unda donchilik tarmoqlarining yaqqol ustunligi. Transport va tashqi iqtisodiy aloqalari. Iqtisodiy rayonlari.

5-mavzu. O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, chegaralari. O'zbekiston tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar

O'zbekistonning hududiy va nufuziy ko'rsatkichlari. Respublika joylashgan iqtisodiy geografik o'rinining xususiyatlari. Siyosiy-ma'muriy bo'linishi. O'zbekiston respublikasining tashkil topish bosqichlari. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olishning o'lka xo'jaligiga ta'siri. Oktabr inqilobidan keyin milliy-hududiy chegaralanishning tashkil topishi, uning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari xamdo'stligi rivojida u joylashgan siyosiy, iqtisodiy va transport geografik o'rinining tobora yaxshilanib borishi.

O'zbekiston tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining xo'jalik ahamiyati. Tabiiy resurslardan foydalanishning tarixiy rivojlanish bosqichlari. Tabiiy resurslarning respublika ishlab chiqarish kuchlarining joylanishi va rivojlanishidagi ahamiyati. O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanishning hududiy tafovutlari.

6-mavzu. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari

Aholi jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi ekanligi. O'zbekiston aholisining dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Aholi o'sishining asosiy omillari. Aholining tabiiy va mexanik (migratsion) xarakati. Aholining

jinsiy va yosh tarkibi, ularning O'zbekiston aholisi tabiiy ko'payishida aks etishi. Aholining milliy tarkibi, uning yillar davomida o'zgarishi. Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar. Aholining ijtimoiy tarkibi va bilim - malaka ko'rsatkichlari. Migratsiya jarayonining ob'ektiv iqtisodiy-ijtimoiy omillari. O'zbekistonda aholi migratsiyasi, ularning bosqichlari va xususiyatlari. Mehnat resurslari va ularning milliy iqtisodiyot tarmoqlarida taqsimlanishi. Mehnat resurslaridan foydalanishning o'ziga xos hududiy ishlab chiqarish xususiyatlari. Respublika mustaqilligi sharoitida mehnat resurslaridan foydalanish muammolari. Aholining hududiy joylashishi va undagi asosiy siljishlar. Aholi hududiy joylashishidagi geografik tafovutlar. Aholining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanishi, ularning nisbati va o'zgarib borishi bosqichlari. Urbanizatsiya jarayoni va uning O'zbekistonda rivojlanish xususiyatlari. Urbanizatsiyaning hududiy ko'rsatkichlari.

7-mavzu. O'zbekiston iqtisodiyotiga umumiy ta'rif.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotida tutgan o'ri. Respublika milliy iqtisodiyotining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. Inqilobdan oldingi O'zbekiston xo'jaligi. Undagi asosiy hududiy va tarkibiy ko'rsatkichlar. Sanoat, qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlari rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari. Sobiq ittifoq davrida O'zbekiston iqtisodiyotining asosan xom ashyo va yarim xom ashyo mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi. Ularning sabab va oqibatlari. Mustaqillik yillarida respublika iqtisodiyotida yuz bergan o'zgarishlar. O'zbekiston iqtisodiyotining Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi iqtisodiyotida tutgan o'ri. Ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanishining erkin iqtisodiy munosabatlariga o'tish davri muammolari. Ilg'or xorij texnologiyasidan foydalanish istiqbollari. O'zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Uni takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohatlar.

8-mavzu. O'zbekiston sanoati.

O'zbekiston sanoat tarmoqlari, ularni rivojlantirish va hududiy joylashtirish sharoitlari va omillari. Respublika sanoatining rivojlanish ko'rsatkichlari, ularning tarkibiy va hududiy joylanish xususiyatlari.

9-mavzu. O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmoqlari.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi, uning respublika iqtisodiyotidagi o'ri, rivojlanish omillari va bosqichlari. Tarmoq tarkibi. Rivojlanish darajasi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari. Majmuaning yangi iqtisodiy munosabatlariga o'tish davridagi rivojlanish xususiyatlari. Asosiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish mintaqalari.

10-mavzu. O'zbekiston transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Transportning mustaqil O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishidagi ahamiyati, uning rivojlanish darajasi va tarkibi. Mustaqillik sharoitida transport

tarmoqlarining rivojlanishi muammolari va istiqbollari. Temir yo'l transporti, uning rivojlanishi bosqichlari va geografiyasi. Yangi temir yo'l qurilishlari O'zbekistonning yagona temir yo'llari tuzimini yaratishning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati. Avtomobil transportining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, rivojlanish bosqichlari. Mamlakatlararo va ichki rayonlararo yuk tashishda tarmoqlarining rolini o'rtib borishi, uning geografiyasi. Xavo transporti uning xususiyatlari. Mustaqillik sharoitida respublikaning tashqi va ichki aloqalarini rivojlantirishda uning roli va geografiyasi. Suv, quvur va elektron transportlari, ularning rivojlanish imkoniyatlari, istiqbollari va geografiyasi.

Turli davlatlar iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida tashqi iqtisodiy aloqalarning ob'ektiv zarurligi, ularning mohiyati, mazmuni, tarkibi xaqida tushunchalar. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalar, xususan tashqi savdo aloqalari rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari. Mustaqillik yillarida ularning yangi mazmun va keng ko'lamda rivojlanayotganligi. Bunda turli yo'nalishlar bo'yicha jahon bozorlari bilan bog'laydigan yangi transport yo'llarini tashkil etilishining ahamiyati. O'zbekiston tashqi savdosining geografiasining tobora kengayib borayotganligi. Unda eksport va importning o'ziga xos nisbati va undagi ijobiy siljishlar. Tashqi savdo balans (ijobiy yoki salbiy) haqida tushuncha. Tashqi savdo ko'rsatkichlaridagi tadrijiy ijobiy o'zgarishlar. Tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishidagi asosiy muammolar va istiqbollar.

11-mavzu. O'zbekiston nomoddiy ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) tarmoqlari

Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanishining ob'ektiv asoslari, o'sishi sur'atlari va hozirgi holati. O'zbekiston iqtisodiyoti rivojida tutgan o'rni. Ularning tarkibi, rivojlanishi muammolari va istiqbollari. Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanish shart-sharoitlari. Uy-joy va kommunal xo'jaligi tarmog'ining jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy xayotining tashkil etishdagi roli uning rivojlanishi darajasi. Mustaqillik sharoitida tarmoqlarning rivojlanish istiqbollari. Savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'ining axamiyati, rivojlanish xolati, muammolari, mulkchilik shakllari xilma-xilligi davrida rivojlanish imkoniyatlari, ularning istiqbollari. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining respublikada va ijtimoiy ishlab chiqarish soxalarini rivojlantirishdagi axamiyati. Tarmoqni hududiy tashkil etishning shart-sharoitlari, uning ichki tarkibi, rivojlanishi darajasi va muammolari. Aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish tarmog'ining aholining ma'naviy shakllanishi va kamol topishidagi ahamiyati, uning asosiy ichki tarmoqlari, rivojlanish darajasi, muammolari va istiqbollari.

12-mavzu. O'zbekiston respublikasining iqtisodiy rayonlari. Toshkent iqtisodiy rayoni

Respublikada iqtisodiy rayonlashtirishning nazariy asoslari va amaliy axamiyati. Iqtisodiy rayonlashtirishning xususiyatlari va omillari, undagi asosiy iqtisodiy rayonlar. Rayonlarning kattaligi, respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni.

Toshkent iqtisodiy rayoni xususiyatlari. Tabiiy sharoiti va resurslari. Ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi va mehnat resurslari. Ularning hududiy joylashuvi. Iqtisodiyoti. Rivojlanish bosqichlari va omillari. Sanoatining rivojlanish holati va tarkibi. Yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, qurilish materiallari majmualari, yengil, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarning tashkil etilishi xususiyatlari, geografiyasi, rivojlanish ko'lamini va istiqbollari. Mustaqillik yillarida iqtisodiy rayon sanoatining rivojlanishi. Qishloq xo'jaligi. Uning iqtisodiy rayon iqtisodiyotida tutgan o'rni, rivojlanishi darajasi va imkoniyatlari. Yer resurslari, ulardan foydalanish xolati va xususiyatlari. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari, istiqbollari va geografiyasi. Transportning asosiy tarmoqlari va geografiyasi. Rayonning asosiy sanoat va ma'naviy markazlari, ularning hududiy joylanishi xususiyatlari. Shaharlari. O'zbekiston ijtimoiy xayotida Toshkent shahri va uning o'rni.

13-mavzu. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni. Farg'ona iqtisodiy rayoni

Rayonning hududiy - ma'muriy tarkibi, kattaligi, respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni, ishlab chiqarish ixtisosining o'ziga xos tomonlari. Rayon geografik o'rning xususiyatlari, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiyoti, uning shakllanishi va ixtisoslanish xususiyatlari. Xo'jaligini tashkil etishda Mirzacho'l dastini o'zlashtirishning axamiyati va ko'lamini. Sanoatining rivojlanishi xususiyatlari, tarkibi. Qishloq xo'jaligini tashkil etishning muxim bosqichlari, xususiyatlari va imkoniyatlari. Uning asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari, ularning hududiy joylashtirilishi va ixtisoslashishi. Asosiy transport tarmoqlari. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarini iqtisodiyoti tarmoqlarining o'zaro o'xshashliklari va tafovutlari. Asosiy sanoat markazlari.

Iqtisodiy rayonning ma'muriy-hududiy tarkibi, kattaligi, geografik o'rning xususiyatlari. Uning respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni, ishlab chiqarish ixtisosining xususiyatlari. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari, rayondagi aholi bandligi muammolari. Iqtisodiyoti, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari, darajasi, tarkibi. Asosiy sanoat tarmoqlari geografiyasi. Yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, kimyo, qurilish materiallari sanoat majmualari. Yengil va oziq-ovqati, aholi iste'mol mollari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanish imkoniyatlari. Zamonaviy sanoat korxonalari, xususan qo'shma korxonalar geografiyasi. Qishloq xo'jaligi rivojlanishining muxim xususiyatlari. Yer-suv resurslaridan foydalanish imkoniyatlari. Uning asosiy tarmoqlari, muammolari va istiqbollari. Vodiya qadimiy xalq xunamandchiligi va turizmi rivojlantirishning keng imkoniyatlari. Transporti, uning rivojlanishi xususiyatlari, muammolari va bartaraf etishi imkoniyatlari. Asosiy transport tarmoqlari va yirik yo'llar qurilishlari geografiyasi. Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarining asosiy iqtisodiy va ijtimoiy geografik tafavutlari. Asosiy industal markazlari va shaharlari.

14-mavzu. Zarafshon iqtisodiy rayoni

Rayonning ma'muriy tuzilishi, kattligi, chegaralari, iqtisodiy geografik o'rining qulayligi, xo'jaligining respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiyoti, uning tarixiy rivoj topganligi xususiyatlari. Sanoatining asosiy tarmoqlari: mashinasozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatlari. Mahaliy sanoat (xunarmandchilik) tarmoqlarining yaxshi rivojlanganligi. Mustaqillik yillarida tashkil qilingan yangi zamonaviy korxonalar geografiyasi, qishloq xo'jaligining o'ziga xos jihatlari va tarmoqlari tarkibi. Uning don, meva va uzum, tamaki, kartoshka va boshqa xildagi maxsulotlar yetishtirishda respublikadagi yetakchilik o'rni, cho'l mintaqasida yaylov chorvachiligi (Qorako'lchilik, tuyachilik). Samarqandning O'zbekistonning eng yirik turizm markazi ekanligi, xalq turizmini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbolining kattaligi. Transporti va uning tarkibi. Temir yo'l va avtomobil transportlarining yetakchi xo'jalik roli. Asosiy sanoat markazlari va shaharlari.

15-mavzu. Janubiy iqtisodiy rayoni. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni.

Iqtisodiy rayonning hududiy tarkibi, kattaligi, chegaralari, iqtisodiy geografik o'rni xususiyatlari. Iqtisodiy rayonning respublika iqtisodiyotida tutgan o'rining tobora oshib borishi. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslari, unda tabiiy gaz va neftning katta zahiralarga egaligi. Aholisi va mehnat resurslari. Xo'jaligining ko'p tarmoqliligi. Uning gaz va neft, paxta va don mahsulotlari yetishtirishdagi yetakchiligi. Sanoatining tog'-kon (gaz va neft qazib chiqarish), gaz kimyosi, yengil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi. Qishloq xo'jaligi, unda paxtachilik, donchilik, uzumchilik, bog'dorchilik, sabzovotchilik, polizchilik, subtropik mevalar qoramolchilik, qorako'lchilik kabi tarmoqlar salohiyatining yuqoriligi. Transporti, unda temir yo'l, avtomobil, quvur transport tarmoqlarining ahamiyati. Asosiy magistral yo'llari geografiyasi. Unda Termiz shahrining temir yo'l, avtomobil va daryo transportlari tutashgan yirik uzel sifatidagi alohida o'rni. Asosiy sanoat markazlari va shaharlari.

Rayonning ma'muriy-hududiy tarkibi, kattaligi, chegaralari, iqtisodiy-geografik o'rni xususiyatlari. Rayon xo'jaligining respublika mintaqalararo mehnat taqsimotidagi muhim o'rni. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiyotining agrar-industrial xarakteri. Qishloq xo'jaligining paxta, don, poliz, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga iqtisoslashganligi, xususan eng yirik sholi yetishtiruvchi rayon ekanligi. Sanoatining asosan agrar tarmoq maxsulotlarini qayta ishlash asosida shakllanganligi. Yengil va oziq-ovqat sanoatlari, gilam to'qish, yoqilg'i-energetika, kimyo kabi sanoat tarmoqlarining tez rivojlanayotganligi. Tarixiy-ijtimoiy rekreatsiya resurslariga ancha boyligi tufayli rayonda turizmning ahamiyatlari tobora oshib borayotganligi. Rayondagi murakkab ekologik xolat va uning ijtimoiy-iqtisodiy xayotga ta'siri. Transporti. Rayonlararo va xalqaro aloqalarda temir yo'l, avtomobil, quvur va xavo transportlarining asosiy tarmoqlaridan ekanligi. Yangi yo'llarning ishga tushirilishi bilan bu

imkoniyatlarning yanada kengayganligi. Asosiy sanoat markazlari va shaharlari.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Markaziy Osiyo siyosiy kartasining shakllanish bosqichlarini tahlil qilish.
2. Markaziy Osiyo aholisining dinamikasining jadvalini tuzish, uning kartagrafik ishlanmalarida o'sish sur'atlarini aniqlash va tahlil qilish.
3. Markaziy Osiyoning qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohatlarni tahlil qilish. Markaziy Osiyoda mavjud transport vositalarini tahlil yetish va yozuvsiz kartaga tushirish.
4. Markaziy Osiyo davlatlari. (Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi.
5. O'zbekistonning siyosiy-ma'muriy kartasining shakllanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasining Tabiiy resurslari bilan ta'minlanishini tahlil qilish.
6. O'zbekiston aholisi o'sish dinamikasini aniqlash. Aholining yillar bo'yicha tabiiy va mexanik xarakatini tahlil qilish.
7. O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanish bosqichlarini o'rganish.
8. Respublika sanoat korxonalari va tarmoqlarining geografiyasi.
9. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohatlarni tahlil qilish.
10. O'zbekistonda mavjud transport vositalarini tahlil qilish va yozuvsiz kartaga transport yo'llarini chizish. Tashqi iqtisodiy aloqalarga doir jadvallar chizish.
11. Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, ularni guruxlashtirish.
12. O'zbekistonning iqtisodiy rayonlarga bo'linishini ahamiyatini o'rganish. Toshkent iqtisodiy rayoni.
13. Mirzacho'l iqtisodiy rayonini. Farg'ona iqtisodiy rayoni.
14. Zarafshon iqtisodiy rayoni
15. Janubiy iqtisodiy rayon. Quyi-Amudaryo iqtisodiy rayoni.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Qozog'iston respublikasi geografik o'rning xususiyatlari, tabiiy sharoiti, tabiiy boyliklari. 2. Qozog'iston Respublikasi iqtisodiy rayonlari. 3. Qirg'iziston Respublikasi. Respublikaning tashkil topishi, chegaralari, geografik o'rning xususiyatlari. tabiiy sharoiti. 4. Qirg'iziston Respublikasi iqtisodiy rayonlari. 5. Tojikiston Respublikasi. Respublikaning tashkil topishi, chegaralari, geografik o'rning xususiyatlari. tabiiy sharoiti, tabiiy boyliklari. 6. Tojikiston Respublikasi iqtisodiy rayonlari. 7. Turkmaniston Respublikasi. Respublikaning tashkil topishi, chegaralari, geografik o'rning xususiyatlari. tabiiy sharoiti. 8. Turkmaniston Respublikasi iqtisodiy rayonlari. 9. O'zbekistonning siyosiy-ma'muriy kartasining shakllanish bosqichlarini tahlil qilish. 10. O'zbekiston aholisi o'sish dinamikasini aniqlash va tahlil qilish. 11. O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanish bosqichlari. 12. Sanoat korxonalari va tarmoqlari. 13. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 14. O'zbekistonda mavjud transport vositalari. 15. Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanish xususiyatlari. 16. Toshkent iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. 17. Toshkent iqtisodiy rayoni xo'jaligi tarkibi, rivojlanish darajasi. Sanoatining asosiy tarmoqlari va geografiyasi. 18. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. 19. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni xo'jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajasi, respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Sanoatining asosiy tarmoqlari geografiyasi. 20. Farg'ona iqtisodiy rayoni. Farg'ona iqtisodiy rayonining kattaligi, chegaralari, tarkibi, geografik o'rni 21. Farg'ona iqtisodiy rayoni xo'jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajasi, respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Sanoatining asosiy tarmoqlari geografiyasi. Transporti. 22. Zarafshon iqtisodiy rayoni. Zarafshon iqtisodiy rayonining kattaligi, chegaralari, geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari unda Markaziy Qizilqumning o'rni, aholisi va mehnat resurslari. 23. Zarafshon iqtisodiy rayoni xo'jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajasi, respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Sanoatining asosiy tarmoqlari geografiyasi. 24. Janubiy iqtisodiy rayoni. Janubiy iqtisodiy rayoni kattaligi, chegaralari, geografik o'rni.	
---	--

25. Janubiy iqtisodiy rayoni xo'jaligining rivojlanish bosqichlari, darajasi, xususiyatlari, respublikadagi o'rni. Sanoat tarmoqlari, unda neft-gaz sanoatining o'rni, ularning geografiyasi. 26. Janubiy iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, subtropik mintaqada joylashganligi, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. 27. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti 28. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni xo'jaligining xususiyatlari va rivojlanish darajasi. 29. Sanoat tarmoqlari va geografiyasi. 30. Qishloq xo'jaligi va geografiyasi. Orol va Orol buyi ekologik muammolari.	
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - talaba Markaziy Osiyo va O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografyaning geografik fanlar orasida tutgan o'rni, uning rivojlanish tarixi, ob'ekti, predmeti va tadqiqot usullari, ularda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlari joylashuviga ta'sir etuvchi omillari haqida <i>bilimga ega bo'lishi</i>; - talaba O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning ta'siri, aholisi va uning hududiy joylashuvi, sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari bo'yicha <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; - O'zbekistonda mavjud siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holat va ulardagi o'zgarishlar, ularning milliy iqtisodiyot tarmoqlari ko'rsatkichlari asosida grafik ishlar, yozuvsiz va sxematik xaritalar bilan ishlash, diagrammalar tuzish, statistik ma'lumotlarni tahlil qila bilish bo'yicha aniq <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruza; • keys-stadi; • individual loyihalar; • taqdimotlar qilish; • guruhlarda ishlash; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish;
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar 1. Boltayev M.J., Ibroimov Sh.I. Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Chirchiq, - 2021. 2. Qayumov.A, Pardayev G'R., Islomov I. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Toshkent-2015.

3. Soliyev A. O'zbekiston Geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). Toshkent, "Universitet", 2014.	Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11. 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faromon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b. 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz. 4. Soliyev A., Maxamadaliyev R. Iqtisodiy geografiya asoslari. Toshkent, Universitet, 1996. 5. Soliyev A., Safarov I. Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari. Toshkent, Universityet, 2003. Axborot manbaalari: 1. www.ziyounet.uz 2. www.nuu.uz 3. www.prg.org 4. www.geographyabout.com 5. www.cspi.uz 6. www.lib.cspi.uz
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil "28" avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: J.A.Namozov – CHDPU, "Geografiya" kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD).
9.	Taqrizchilar: Z.N.Tojiyeva – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi mudiri: g.f.d (DSc), prof. N.I.Safarova – TDPU, "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti, g.f.n., dots.